



SHUHRATNING "OLTIN ZANGLAMAS" ASARIDA MAQOLLAR, METAFORA VA O'XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK TALQINI

Amirqulov Sanjar Sayitmurotovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
Email: s.amirqulov@dtpi.uz
Tel: +998(99)747-90-87

Choriyeva Feruza Mamadaminovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talabasi.
Email: choriyevkamoliddin777@gmail.com
Tel: +998(91) 584 30 07
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371293>

Annotatsiya: ushbu tezida yozuvchi Shuhratning "Oltin zanglamas" asarida qo'llanilgan leksik birliklarning xususiyatlari, ularning badiiy matn mazmunini boyitishdagi roli tahlil qilinadi. Asarda xalqona so'zlar, sinonim va antonim qatlamlar, frazeologizmlar, qadimiy so'zlar hamda milliy ruhni ifodalovchi leksik vositalarning o'rne ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining individual uslubi va til boyligidan foydalanish mahorati misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: leksika, sinonim, antonim, frazeologizm, xalqona so'z, individual uslub, badiiy til, milliy ruh.

Shuhratning "Oltin zanglamas" asari o'zbek xalqining ma'naviy olamini, milliy qadriyatlarini, insoniy munosabatlar va jamiyat hayotidagi muammolarni badiiy ifodalashda alohida o'rin tutadi. Muallif xalq maqollaridan o'z o'rnida, mazmun jihatidan mos holda foydalanib, asarning mazmunini chuqurlashtiradi hamda obrazlarni xalqona tilda jonlantiradi[1].

Asarda "Sabr so'ngi – sariq oltin", "Qo'shning tinch – sen tinch", "Puli bor farmon bilan, puli yo'q armon bilan yashaydi", "Asl aynamas, oltin zanglamas", "Yomonni balo ham urmaydi" kabi maqollar xalq og'zaki ijodining nodir namunalaridir. Bular insonlarning hayotiy tajribasidan kelib chiqib shakllangan falsafiy fikrlarni ifodalaydi.

Maqollar orqali muallif personajlarning dunyoqarashini, ularning ijtimoiy mavqei va ruhiy holatini yoritadi. Masalan, "Qo'shning tinch – sen tinch" degan maqol milliy an'anamizdagi qo'shnichilik munosabatining ahamiyatini ifodalasa, "Asl aynamas, oltin zanglamas" degani asar nomi bilan uyg'un holda, insoniy fazilatlarining bardavomligini, haqiqiy qadriyatlarining vaqt sinovidan o'tishini bildiradi.

Maqollar tilning frazeologik tizimi bilan bog'liq bo'lib, ular semantik yaxlitlik, struktura ixchamligi va badiiy obrazlilik jihatdan ajralib turadi. Shuhrat asarda maqollarni nafaqat bezak sifatida, balki obraz yaratish vositasi sifatida qo'llaydi. Ularning yordamida yozuvchi xalq ruhiyatini, milliy tafakkurni, hayotiy donolikni badiiy shaklda ifodalagan[4].

Maqollar asarda ham to'g'ridan-to'g'ri, ham ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ular asar voqealarining rivojiga, personajlarning xarakterini ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, ularning tarkibida yumor, kesatiq, tanbeh unsurlari ham mavjud bo'lib, bu jihatlar asarning badiiy jozibasini kuchaytiradi.

Muallifning maqollardan foydalanish uslubi xalq tili boyligiga bo'lgan hurmatini, o'zbek milliy qadriyatlariga sodiqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, asar qahramonlari nutqida keltirilgan

maqollar orqali hayot falsafasi, insoniy sadoqat, halollik, sabr, vafo, imyon kabi tushunchalar yoritiladi. Shuhratning bunday yondashuvi o'zbek badiiy prozasini xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlashtirganini ko'rsatadi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda metafora va o'xshatish ko'chish hodisalari sifatida qaraladi. Metafora ma'noni yangi kontekstda kashf etish, yangicha fikr ifodalash imkonini beradi. O'xshatish esa ikki predmetni ma'lum bir belgi jihatidan yaqinlashtirish orqali estetik ta'sir kuchini oshiradi.

Masalan, Atoyining "Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum..." baytidagi "la'l" so'zi metaforik ma'noda qo'llanib, sevgilining labi bilan qimmatbaho tosh o'rtasidagi go'zallikni ifodalaydi. Shuhrat ijodida ham shunga o'xshash badiiy ifoda usuli kuzatiladi.

Asarning o'zi — "Oltin zanglamos" nomi ham metaforik ma'noga ega. "Oltin" so'zi bu yerda jamiyatdagi halol, sadoqatli, pokiza insonlarni anglatadi. "Zanglamos" esa ularning fazilatlari vaqt o'tishi bilan so'nmasligini, ularning qadri abadiy saqlanishini bildiradi.

Shuhratning matnida metafora qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda keng ishlatilgan:

- "Tabassum — bemehr otaning sovuq o'g'lini erkalashidek",
- "Ko'ngil — chirog'i olib chiqib ketilgan uyday",
- "Tovush — jonon piyola jarangiday" kabi misollar shular jumlasidandir.

Bu misollarda metaforik tasvir orqali ruhiy bo'shliq, mehrsizlik, qayg'u yoki samimiyat kabi hissiy holatlar aniq va ta'sirchan tarzda beriladi.

"Oltin zanglamos"da o'xshatishlar obrazni jonlantirish, voqealarni ko'z o'ngida gavdalantirish uchun xizmat qiladi[6].

Masalan:

- "Uyqudan yangi turgan kishidek xomush",
- "O'yinchog'i suvga oqib ketgan boladek",
- "Quruq xazon emas, sal yelga uchadigan (Aziza)" kabi misollar qahramonlarning hissiy holatini ko'rsatishda ishlatilgan.

- Bu o'xshatishlarda psixologik tasvir va estetik obrazlilik uyg'unlashadi. Shuhratning badiiy uslubida tashbehtar nafaqat tasviriy, balki g'oyaviy yuk ham oladi. Asardan olingan misollar asosida quyidagi kuzatishlarni keltirish mumkin[7]:

Sifat asosidagi o'xshatishlar: "Qo'rg'oshindan quyilgandek (vazmin)", "Bo'z ko'ylakka sadaf tugma qadagandek (yarashmaslik)"

Harakat asosidagi o'xshatishlar: "Kalga o'xshab tarog'ini maqtash", "Chumoli uyasiga tushib qolgan pashshadek"

Holat metaforalari: "Ko'ylakning olovidan bag'riga tushgan uchqunni kul bosgandek bo'ldi" (munosabat sovushi), "Yostiqlik jildiga o'ralgan mushuk bolasiday" (ruhiy og'riqlik). Bu misollar shuni ko'rsatadiki, Shuhrat har bir obrazni alohida psixologik holatda tasvirlash uchun o'xshatish va metaforalarni puxta tanlaydi[3].

Yozuvchi asarda metafora va o'xshatishlarni shunchaki badiiy bezak sifatida emas, balki ma'naviy-estetik vosita sifatida qo'llaydi. Ularning yordamida insoniy tuyg'ular, sadoqat, vijdon, mehr, befarzandlik og'rig'i kabi mavzular yuksak badiiy darajada ifodalanadi. Shuhratning tili jonli, xalqona, xalq iboralari bilan boyitilgan. Masalan, "Jo'jalarni katakda



boqishdek gap”, “Qo’shning tovug’i g’oz ko’rinadi” kabi iboralar xalq donishmandligi asosida yaratilgan metaforik ifodalardir.

Shuhratning “Oltin zanglamas” asari o’zbek nasrida badiiy tasvir vositalarining mahorat bilan qo’llanilgan namunasi sifatida alohida o’rin tutadi. Asarda metafora va o’xshatishlar nafaqat tasviriy, balki mazmuniy, g’oyaviy va psixologik yukni ham bajaradi. Yozuvchi ularning yordamida obrazlarning ichki dunyosini yoritadi, o’quvchini chuqur tafakkurga chorlaydi.

Natijada, Shuhratning til uslubi o’zbek adabiyotidagi metaforik tafakkurning yuksak namunasi sifatida baholanishi mumkin. “Oltin zanglamas”dagi o’xshatish va metaforalar tahlili shuni ko’rsatadiki, ijodkor xalq tili boyligidan mahorat bilan foydalanib, milliy badiiy tafakkurga yangi qirralar olib kirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat. Oltin zanglamas. “Oltin qaldirg’och” nashriyoti. Toshkent. 2018.
2. Mengliyev, B. Hozirgi o’zbek tili. Toshkent. 2018.
3. Mengliyev, B., & Xoliyorov, O. O. O’zbek tilidan universal qo’llanma. Toshkent. 2008.
4. Mirzayev T. va boshqalar O’zbek xalq maqollari. Toshkent. 2016.
5. O’zbek xalq maqollari (1988). (2-jild). Toshkent.
6. Abdalimova, Sh., & Rahimova, Z. O’xshatish vositalarining lingvistik xususiyatlari. *Solution of Social Problems in Management and Economy*, 34–38.
7. Bozorova, G. Badiiy o’xshatishlarning lisoniy xususiyatlari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1285–1293.